

SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA INDIKATORLAR TIZIMI

METHODOLOGY AND SYSTEM OF INDICATORS FOR EVALUATING THE FINANCIAL STABILITY OF INSURANCE COMPANIES

¹Boynazarova
Nargiza Urolovna

¹Toshkent xalqaro universiteti tayanch doktoranti.
G-mail: nargizaboynazarova760@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan, xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan baholash yondashuvlari (Solvency II tizimi, CAMELS modeli, NAIC RBC, IMF FSI) taqqoslangan hamda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozoriga nisbatan qo'llanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida moliyaviy barqarorlikni baholashning asosiy indikatorlari tizimlashtirilgan, ularning hisoblash metodologiyasi ko'rsatib berilgan. O'zbekiston sug'urta bozorining 2019-2025-yillardagi rivojlanish dinamikasi tahlil qilinib, milliy sharoitda qo'llanilishi mumkin bo'lgan kompleks baholash modeli taklif etilgan.

Eng. - The article discusses the theoretical and methodological foundations of assessing the financial stability of insurance companies, compares the assessment approaches used in international practice (Solvency II system, CAMELS model, NAIC RBC, IMF FSI), and analyzes the possibilities of their application to the insurance market of the Republic of Uzbekistan. Within the framework of the study, the main indicators of assessing financial stability are systematized, and their calculation methodology is indicated. The dynamics of the development of the insurance market of Uzbekistan in 2019-2025 are analyzed, and a comprehensive assessment model that can be applied in national conditions is proposed.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ sug'urta kompaniyasi, moliyaviy barqarorlik, to'lov qobiliyati, Solvency II, CAMELS modeli, indikatorlar tizimi, sug'urta bozori, riskni boshqarish, aktuar zaxiralar.

❖ insurance company, financial stability, solvency, Solvency II, CAMELS model, system of indicators, insurance market, risk management, actuarial reserves.

Kirish.

Global miqyosda so'nggi yillarda yuzaga kelgan bir qator jarayonlar sug'urta sektorining moliyaviy barqarorligi masalasini jahon moliya arxitekturasining markaziy mavzularidan biriga aylantirdi. Xususan, 2008-2009-yillardagi jahon moliyaviy inqirozi ayrim yirik sug'urta korporatsiyalarining (AIG,

Lehman sug'urta kompaniyalari) deyarli bankrotlik yoqasiga kelishiga sabab bo'ldi va natijada, Yevropa Ittifoqida Solvency II direktivasi kabi qat'iy riskka asoslangan kapital normativlari ishlab chiqildi. 2017-yilda Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashining IFRS 17 «Sug'urta shartnomalari» standarti qabul qilinishi (2023-yildan amalda qo'llanilmoqda)

sug'urta majburiyatlarini baholash va moliyaviy hisobotni shakllantirishga tubdan yangicha yondashuvni joriy qildi. 2025-yildan Xalqaro sug'urta nazoratchilari assotsiatsiyasi (IAIS) tomonidan Sug'urta kapitali standarti (ICS) tizimini global miqyosda joriy etish boshlangani, shuningdek, iqlim o'zgarishi ta'sirida tabiiy hodisalardan sug'urtalashning qiyinlashuvi milliy sug'urta tizimlarini xalqaro standartlarga moslashtirish zaruratini dolzarb qilib qo'yimoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida qariyb 36 ta sug'urta kompaniyasi, shu jumladan 7 ta hayot sug'urtasi kompaniyasi faoliyat yuritmoqda. Tarmoqning jami aktivlari 2025-yilda 14,7 trln. so'mni, yillik mukofot tushumi esa 13,5 trln. so'mni tashkil qildi [1]. Ammo, tarmoq xususiyatida bir qator jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda: mukofot tushumining hududiy konsentratsiyasi (Toshkent shahri hissasiga 75-80 foiz ulushning to'g'ri kelishi), qayta sug'urta operatsiyalarida xorijiy kompaniyalarga yuqori darajadagi bog'liqlik, investitsiya portfelining bank depozitlariga haddan tashqari konsentratsiyasi (60-70 foiz), hayot sug'urtasi segmentining sust rivojlanishi, shuningdek, aktuariy xizmatlar va risk-menejment tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi kabi muammolarning barchasi milliy sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Ilmiy nuqtai nazardan, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholash va ta'minlash masalalari o'zining metodologik murakkabligi bilan ajralib turadi. An'anaviy moliyaviy barqarorlik modellari, xususan, Altman Z-score, Springeyt, Taffler, Biver va boshqa mualliflarning modellari asosan sanoat va savdo korxonalari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ular sug'urta faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, uzoq muddatli majburiyatlarning ehtimoliy xarakteri, aktuar hisoblar, sug'urta zaxiralari, qayta sug'urta oqimlari, investitsiya riski va katastrofik risklar kabi omillarni to'liq

hisobga olmaydi. Bugungi kunda xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan riskka asoslangan kapital modellari (AQShdagi RBC, Yeldagi Solvency II SCR va MCR, Yaponiyadagi SMR va ESR) hamda zamonaviy risk-menejment usullari (stress-test, ORSA — Own Risk and Solvency Assessment, dinamik moliyaviy tahlil, monte-Karlo simulyatsiyalari) O'zbekiston sug'urta tizimiga hali to'liq integratsiya qilinmagan. Bu esa, milliy sharoitga moslashtirilgan ilmiy-metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini eng dolzarb masalaga aylantiradi.

Shu bilan birga, sug'urta sektoriga xos zamonaviy risklar ham tadqiqotning dolzarbligini yanada mustahkamlaydi. Jumladan, iqlim o'zgarishi natijasida tabiiy ofatlarning tez-tez yuzaga kelishi va bunda iqtisodiy zararining ortishi, raqamlashtirish bilan bog'liq kiber-risklar va kiber-sug'urta talabining o'sishi, aholining yosharish-qarish dinamikasining hayot sug'urtasi majburiyatlariga ta'siri, ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) omillarining sug'urta kompaniyalari investitsiya portfeliga singdirilishi milliy sharoitda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

Yuqorida keltirilgan sabablarga ko'ra, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashni ilmiy-metodologik jihatdan asoslash, zamonaviy xalqaro standartlarni (Solvency II, IFRS 17, ICS) O'zbekiston sharoitiga adaptatsiya qilish, aktiv-majburiyatlar muvozanatini boshqarish (ALM), qayta sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish va investitsiya portfelini optimizatsiyalash bo'yicha kompleks takliflar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifasi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy barqarorlik masalasini tadqiq etgan ko'plab olimlar o'z ishlarida bu tushunchaning iqtisodiy tizimdagi o'rni va

ahamiyatini turlicha izohlaganlar. Xususan, F. Modilyani, F. Hayek, R. Dornbusch, E. Dolan kabi iqtisodchilar moliyaviy tizimning barqaror faoliyati mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim omili ekanligini ta'kidlab o'tganlar [2; 3; 4; 5]. Ularning fikricha, moliyaviy barqarorlik bu iqtisodiyotning turli zarbalarga bardosh bera olish qobiliyatidir va u iqtisodiy rivojlanishning asosi hisoblanadi.

Hampton J.J. va Outreville J.F.lar moliyaviy barqarorlikni "kompaniyaning o'z va jalb etilgan mablag'lari o'rtasidagi optimal nisbatni saqlab tura olish, shu bilan birga, risklar ta'sirini yumshata olish qobiliyati" sifatida talqin qiladilar [6; 7].

Nikulina N.N. va Berezina S.V. sug'urta kompaniyasining moliyaviy resurslarini "sug'urtalovchining faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan daromadlar va tashqi tushumlar ko'rinishidagi mablag'lar" sifatida ta'riflaydilar, ular o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardan iborat [8].

O'zbekistonlik olimlardan Abduraxmonov I.X., Qarshiyev A. va boshqalar milliy sug'urta bozori kontekstida moliyaviy barqarorlikni tahlil qilib, unga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar: sug'urta portfelining diversifikatsiyalanganlik darajasi, qayta sug'urta tizimining ishonchliligi, aktuar xaxiralarning yetarliligi, investitsion siyosatning samaradorligi hamda boshqaruv sifati [9; 10].

D.Cummins sug'urta kompaniyalari kapital tuzilmasi va risk menejment mexanizmlarini modellashtirish orqali barqarorlikni baholash metodlarini ishlab chiqqan [11]. P.Skipper esa, sug'urtaning ijtimoiy himoya tizimidagi ahamiyatini yoritib, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashdagi rolini tahlil qilgan. [12] Tahlillar ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi bir nechta omillar bilan belgilanadi: kapital yetarliligi, risk-menejment tizimi, investitsiya siyosati, raqamli va innovatsion texnologiyalar, shuningdek, davlat tartibga solish siyosati. O'zbekiston olimlari

ko'proq milliy sharoit va ichki mexanizmlarga urg'u berayotgan bo'lsa, xorijiy tadqiqotchilar global va empirik yondashuvlarni taklif qilib, tizimning makroiqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi.

Sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini baholash uning majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyati, risklarga chidamliligi va uzoq muddatli barqaror faoliyatini aniqlashga xizmat qiladi. Moliyaviy barqarorlikni baholash odatda bir qator moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Ushbu ko'rsatkichlar sug'urta kompaniyasining kapital yetarliligi, likvidligi, rentabelligi hamda sug'urta operatsiyalarining samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi [13].

Sug'urta iqtisodiyoti bo'yicha mutaxassis Scott E. Harrington ham sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda to'lov qobiliyati asosiy ko'rsatkichlardan biri ekanligini ta'kidlab, sug'urta kompaniyalari faoliyatida kapital yetarliligi, rezervlarning shakllanishi va likvid aktivlarning mavjudligi muhim rol o'ynashini qayd etadi [14]. Shunday qilib, moliyaviy barqarorlik va to'lov qobiliyati sug'urta kompaniyasi faoliyatining o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi elementlari hisoblanadi.

Shunday qilib, sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi — bu uning kapital bazasi, aktivlari va majburiyatlarining muqobil tuzilishi hamda samarali riskni boshqarish tizimi orqali o'z funksiyalarini barqaror bajarish, bozor shoklariga bardosh bera olish hamda uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlash qobiliyatidir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot doirasida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullari majmui qo'llanildi. Nazariy asosni O'zbekistonlik va xorijiy olimlarning sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi, riskni boshqarish hamda sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyatini baholash bo'yicha ilmiy ishlari

tashkil etadi. Empirik baza sifatida O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari, shuningdek, yetakchi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlari xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo'llanildi: iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy-taqqoslama tahlil, induktiv va deduktiv usullar, sintez va tizimli yondashuv. Xalqaro metodologiyalarni tahlil qilishda Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF)ning «Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari bo'yicha metodologik qo'llanmasi» (2019), Yevropa Ittifoqining Solvency II Direktivalari (2009/138/EC) asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi tushunchasi o'zining tabiatiga ko'ra boshqa moliya-kredit tashkilotlarining (tijorat banklari, investitsiya fondlari, nodavlat pensiya jamg'armalari) barqarorligidan tubdan farq qiladi. Sug'urta faoliyati ehtimoliy xarakterga ega bo'lib, mukofotlar olinadigan va to'lovlar amalga oshiriladigan muddatlar o'rtasida sezilarli tafovut mavjuddir. Bu xususiyat sug'urta kompaniyalaridan aktiv va majburiyatlar muddatini mutanosiblashtirish, zaxiralarning adekvatligini ta'minlash, to'lov qobiliyati marjasini barqaror saqlash hamda investitsiya portfelini shakllantirishda muhim ma'suliyatni yuklaydi. Har qaysi ushbu yo'nalishda qabul qilinadigan qarorlar kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: ichki va tashqi. Ichki omillarga kompaniyaning o'z kapitali hajmi, aktuar zaxiralarning sifati, investitsion portfelning tuzilishi, tarif siyosati, boshqaruv samaradorligi, xodimlar malakasi kiradi. Tashqi omillar esa, makroiqtisodiy holat, inflyatsiya darajasi, valyuta kursi,

tartibga soluvchi talablar, raqobat darajasi, tabiiy va texnogen ofatlar chastotasini o'z ichiga oladi.

Xalqaro standartlarga ko'ra, moliyaviy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlari kapital yetarliligi, sug'urta zaxiralari hajmi, investitsion aktivlar sifati, likvidlik darajasi va sug'urta to'lovlari barqarorligi hisoblanadi. Yevropa Ittifoqida amal qilayotgan Solvency II tizimi aynan shu mezonlar orqali sug'urta kompaniyasining ishonchlilik darajasini aniqlashga imkon beradi. Mazkur tizim kompaniyaning risk darajasiga mos kapitalni saqlashini talab etadi, bu esa uning to'lov qobiliyatini va moliyaviy barqarorligini kafolatlaydi [15].

Solvency II Yevropa Ittifoqining sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalari uchun qabul qilingan riskka asoslangan prudensial tartibga solish tizimi bo'lib, 2016-yil 1-yanvardan amal qilmoqda. Tizim uch ustunli tuzilishga ega: I ustun – miqdoriy talablar (kapital hisob-kitoblari, aktuar zaxiralari, to'lov qobiliyati kapital talabi – SCR, minimal kapital talabi – MCR); II ustun – sifatiy talablar (korporativ boshqaruv, riskni boshqarish tizimi, ORSA – riskni va to'lov qobiliyatini mustaqil baholash); III ustun – nazorat qiluvchi organlarga hisobotlar berish va ommaviy ma'lumot ochiqligi.

Solvency II tizimining asosiy xususiyati u riskka asoslangan yondashuvni qo'llaydi: yuqoriroq risklar yuqoriroq kapital talabiga olib keladi. To'lovga qodirlik kapitali talabi (SCR) hisob-kitobi sug'urta kompaniyasiga keyingi 12 oy davomida majburiyatlarini kamida 99,5 foiz ehtimollik bilan bajarish uchun zarur bo'lgan kapital miqdorini belgilaydi. Bu, 2008-yilgi moliyaviy inqirozdan olingan saboqlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

CAMELS modeli Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) tomonidan 2003-yilda sug'urta sektorining moliyaviy mustahkamligini baholash uchun taklif etilgan.

Modelning nomi yetti asosiy guruh indikatorlarining inglizcha nomlarining bosh harflaridan tarkib topgan: kapital yetarliligi, aktivlar sifati, qayta sug'urta va aktuar masalalari, boshqaruvning barqarorligi, daromad va rentabellik, likvidlik, bozor xavfiga sezgirlik. Dastlab u bank sektoriga nisbatan qo'llaniladigan CAMELS modeliga Qayta sug'urta va Aktuar masalalar komponentlarini qo'shish orqali sug'urta spesifikasiga moslashtirilgan.

CAMELS modelining har bir komponenti o'ziga xos indikatorlar to'plamiga ega. Kapital yetarliligi bo'yicha – mukofot/kapital nisbati, aktuar xazinalar/kapital nisbati; aktivlar sifati bo'yicha – aktivlarning diversifikatsiyalanish darajasi, investitsiyalarning sifati; qayta sug'urta bo'yicha – qayta sug'urta koeffitsienti, ushlab qolish koeffitsienti; daromadlilik bo'yicha – kombinirlangan koeffitsient, ROA, ROE; likvidlik bo'yicha – likvid aktivlar/qisqa muddatli majburiyatlar nisbati kabilar.

AQSh da Milliy sug'urta komissarlar uyushmasi (NAIC) tomonidan ishlab chiqilgan

Riskka asoslangan kapital (RBC) modeli 1993-yildan buyon qo'llanilmoqda. Bu model asosan sug'urta kompaniyalarining kapital yetarliligini hisoblashga yo'naltirilgan bo'lib, to'rt asosiy risk toifasini inobatga oladi: aktivlar riski, sug'urtalash riski, foiz stavkasi riski va biznes riski. RBC koeffitsienti asosida tartibga soluvchi organlar tomonidan to'rt darajali intervensiya tizimi qo'llaniladi: kompaniya toifalash hududidan tushganida prudential choralar kuchaytiriladi.

IMFning 2019-yilgi «Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari bo'yicha metodologik qo'llanmasi» (2019 FSI Guide) sug'urta sektorini ham qamrab olgan bo'lib, milliy nazorat qiluvchi organlarga moliyaviy barqarorlikni tizimli tarzda monitoring qilish imkonini beradi [16].

Yuqorida tahlil qilingan xalqaro metodologiyalar asosida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholashning kompleks indikatorlar tizimi taklif etiladi. Ushbu tizim yetti asosiy blokdan iborat bo'lib, har bir blok alohida indikatorlar to'plamini o'z ichiga oladi (1-jadval).

1-jadval

Sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini baholash indikatorlari tizimi*

Blok	Indikator	Hisoblash formulasi	Normativ qiymati
Kapital yetarliligi	To'lov qobiliyati koeffitsienti	$O'z\ kapital / Minimal\ kapital\ talabi$	$\geq 150\%$
	Kapital/ sug'urta mukofoti nisbati	$O'z\ kapital / sof\ sug'urta\ mukofoti$	$\geq 30-50\%$
Aktivlar sifati	Aktivlar diversifikatsiyasi	$Bitta\ aktiv\ turi / Jami\ aktivlar$	$\leq 30\%$
	Debitor qarzlar ulushi	$Debitor\ qarzlar / Jami\ aktivlar$	$\leq 20\%$
Qayta sug'urta	Qayta sug'urta koeffitsienti	$Qayta\ sug'urta\ mukofoti / Jami\ sug'urta\ mukofoti$	$\leq 50\%$
	Ushlab qolish koeffitsienti	$sof\ sug'urta\ mukofoti / Jami\ sug'urta\ mukofoti$	0,5–0,8
Boshqaruv	Boshqaruv xarajatlari koeffitsienti	$Ma'muriy\ xarajatlar / sof\ sug'urta\ mukofoti$	$\leq 15-20\%$
Daromadlilik	Kombinirlangan koeffitsient	$(Zararlar + xarajatlar) / sof\ sug'urta\ mukofoti$	$\leq 100\%$
	Aktivlar rentabelligi (ROA)	$Sof\ foyda / Jami\ aktivlar$	$\geq 3-5\%$
	Kapital rentabelligi (ROE)	$Sof\ foyda / O'z\ kapital$	$\geq 10-15\%$
Likvidlik	Joriy likvidlik	$Joriy\ aktivlar / Joriy\ majburiyatlar$	$\geq 1,5$
	Tez likvidlik	$Yuqori\ likvid\ aktivlar / Qisqa\ muddatli\ majburiyatlar$	$\geq 1,0$
Bozor riskiga sezgirlik	Valyuta riski koeffitsienti	$Xorijiy\ valyutadagi\ aktivlar / Jami\ aktivlar$	$\leq 30\%$
	Foiz stavkasi sezgirligi	$Dyuratsiya\ bo'yicha\ gep\ tahlili$	Minimal

*Muallif tomonidan IMF FSI Guide (2019) va Solvency II asosida tuzildi.

Ushbu indikatorlar tizimi integral baholash modelida kompleks tarzda qo'llanilishi ko'zda tutiladi. Har bir blok uchun muayyan vazn koeffitsienti ($w_1 \dots w_7$) belgilanib, umumiy integral ko'rsatkich quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$IB = \sum (I_i \times w_i), \text{ bunda: } \sum w_i = 1,0 \quad (1)$$

bunda, IB — integral barqarorlik ko'rsatkichi; I_i — i-blok bo'yicha normallashtirilgan indikator; w_i — i-blokning vazn koeffitsienti.

Vazn koeffitsientlari ekspertlar bahosi yoki tahliliy ierarxiya usuli asosida aniqlanishi mumkin. Olingan integral ko'rsatkich qiymati bo'yicha kompaniyalar to'rt darajali guruhga ajratilishi taklif etiladi (2-jadval).

2-jadval


Integral ko'rsatkich bo'yicha sug'urta kompaniyalarining toifalashtirilishi*

Integral ko'rsatkich (IB)	Moliyaviy barqarorlik darajasi	Tavsiya etiladigan choralar
0,85–1,00	Yuqori (barqaror)	Rivojlanish siyosatini saqlab qolish, yangi mahsulotlar joriy etish
0,65–0,84	Qoniqarli	Zaif pozitsiyalarni tahlil qilish va tuzatish choralari
0,45–0,64	Qoniqarsiz (risklar mavjud)	Kapitallashtirishni oshirish, portfeln diversifikatsiyalash
< 0,45	Tanglik holati	Tartibga soluvchi organning majburiy aralashuvi, sanatsiya

*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O'zbekiston sug'urta bozori oxirgi o'n yillikda jadal o'sish dinamikasini namoyon etmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, sug'urta mukofotlarining umumiy hajmi 2025-yilda 13,5 trln. so'm bo'lib, YaIMdagi ulushi 0,73 foizni tashkil etdi. Sug'urta

mukofotlarining aholi jon boshiga nisbati 2019-yildagi 5,9 AQSh dollaridan 2025-yilda 29,2 AQSh dollariga o'sgan. Sug'urta mukofotlarining zararlilik koeffitsienti esa so'ngi 5 yilda 20-25 foiz atrofida tebrangan (1-rasm).




1-rasm. O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2019-2025-yillar)¹

Shu bilan birga, milliy sug'urta bozorida qator muammolar saqlanib qolmoqda: sug'urta kompaniyalarining kapitallashtirish darajasining yetarli emasligi, hayotni

sug'urtalash segmentining sustligi, qayta sug'urta tizimining horijiy bozorga qaramligi, aktuar zaxiralarni shakllantirish metodologiyasining takomillashmaganligi.


¹Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi (<https://napp.uz/uz>)



2-rasm. Sug'urta tashkilotlarining investitsiyalari², (foizda)

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalarning ustav kapitali 2019-yilda 755,2 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil yakuniga kelib 4 006,0 mlrd so'mga etib, qariyb 5,3 barobarga oshdi. Sug'urta zaxiralari va aktivlari hajmi dinamikasi ham ijobiy tendensiyalarni namoyon etdi. Bu esa,

sug'urta kompaniyalarining moliyaviy resurslari kengayib, investitsion salohiyati ortayotganini bildiradi. Xususan, 2019-2025-yillar oralig'ida sug'urta kompaniyalari investitsiya hajmi qariyb 3,6 barobarga oshgan (3-rasm).



3-rasm. O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari tahlili³, trln. so'm

Xalqaro metodologiyalarni tahlil qilish va O'zbekiston sug'urta bozorining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, milliy

sharoitga moslashtirilgan baholash modelini shakllantirish zarur. Bunda, quyidagi yondashuvlar taklif etiladi.

²Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi (<https://napp.uz/uz>)

³Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi (<https://napp.uz/uz>)

Birinchidan, CAMELS modelini bazaviy tarzda qabul qilish maqsadga muvofiq, chunki u IMF tomonidan tavsiya etilgan va davlatlararo taqqoslanuvchanlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida kapital yetarliligi va qayta sug'urta bloklariga qo'shimcha e'tibor berish kerak, chunki mahalliy kompaniyalarning kapital bazasi nisbatan kichik va qayta sug'urta bo'yicha xorijiy kompaniyalarga qaramlik yuqori.

Ikkinchidan, Solvency II tizimining ayrim elementlarini, xususan, ORSA (Own Risk and Solvency Assessment — riskni va to'lov qobiliyatini mustaqil baholash) mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. ORSA kompaniyalardan o'z riskli profilini muntazam ravishda baholash va tegishli kapital zaxiralarini shakllantirishni talab qiladi. Bu milliy sug'urta kompaniyalarida riskni boshqarish madaniyatini rivojlantirish uchun muhim qadam bo'ladi.

Uchinchidan, raqamli transformatsiya jarayoniga yangi turdagi risklarni (kiber-xavflar, ma'lumotlar himoyasi, IT-infratuzilma zaifliklari) baholashga yo'naltirilgan qo'shimcha indikatorlar kiritilishi kerak. Shuningdek, iqlim o'zgarishi ta'siri (ESG-omillar) ham hisobga olinishini talab qiladi. Yevropa Ittifoqining 2025-yilgi "Insurance Risk Dashboard" hisobotida aynan ushbu omillar bozor barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan [17].

To'rtinchidan, milliy sharoitda stress-testlar tizimini joriy etish zarur. Stress-testlar turli nomuvofiq ssenariylarda (valyuta kursining keskin o'zgarishi, inflyatsiyaning o'sishi, tabiiy ofatlar) kompaniyalarning bardoshlilikini tekshirishga imkon beradi. Bu tajriba Buyuk Britaniya va YeI da muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Beshinchidan, indikatorlar tizimini tartibga soluvchi organ (Istiqbolli loyihalar milliy agentligi — NAPP) tomonidan qabul qilinadigan majburiy hisobot shakliga integratsiya qilish kerak. Bu baholashning

tizimli, muntazam va shaffof amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi bu murakkab, ko'p omilli iqtisodiy kategoriya bo'lib, uning baholanishi uchun tizimli, kompleks yondashuv talab etiladi. Bugungi kunda xalqaro amaliyotda CAMELS, Solvency II, NAIC RBC va IMF FSI kabi bir qator metodologik yondashuvlar qo'llanilmoqda, ularning har biri o'z afzalliklari va kamchiliklariga ega.

2. CAMELS modeli IMF tomonidan tavsiya etilgan va davlatlararo taqqoslanuvchan bo'lgani sababli O'zbekiston sharoitida bazaviy model sifatida qabul qilinishi mumkin. Biroq, u Solvency II tizimining ayrim elementlari (xususan, ORSA, stress-testlar) bilan to'ldirilishi kerak.

3. O'zbekiston sug'urta bozori 2019–2025-yillar davomida jadal o'sishni ko'rsatdi, biroq bozor tuzilmasida nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda: hayotni sug'urtalash ulushi past, qayta sug'urta bo'yicha xorijiy bozorga qaramlik yuqori.

4. Moliyaviy barqarorlikni baholashning taklif etilgan kompleks indikatorlar tizimi 7 ta asosiy blokni va 14 ta asosiy indikatorni qamrab oladi, integral ko'rsatkich hisoblash formulasi hamda kompaniyalarni toifalash metodologiyasini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar bildiriladi: NAPP tomonidan sug'urta kompaniyalari uchun yagona CAMELS-asosli hisobot shaklini joriy etish; ORSA mexanizmini majburiy tarzda tatbiq etish; yillik stress-testlar o'tkazish amaliyotini o'rnatish; aktuar zaxiralarni shakllantirish metodologiyasini Solvency II standartlariga moslashtirish; raqamli va ESG-risklarni baholash bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP): rasmiy veb-sayt. – URL: <https://napp.uz>
2. Modigliani F., Miller M.H. *The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment* // *American Economic Review*. – 1958. – Vol. 48, No. 3. – P. 261–297.
3. Hayek F.A. *Monetary Theory and the Trade Cycle*. – London: Jonathan Cape, 1933. – 240 p.
4. Dornbusch R., Fischer S., Startz R. *Macroeconomics*. 12th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2011. – 608 p.
5. Dolan E.G. *Money, Banking and Monetary Policy: An Introduction to Monetary Economics*. – New York: Holt, Rinehart and Winston, Inc., 1981. – 450 p. URL: <https://studfile.net/preview/2530146/>
6. Hampton J.J. *Financial Management of Insurance Companies*. – New Y.: AMACOM, 1993. – 352 p.
7. Outreville J.F. *Theory and Practice of Insurance*. – Boston: Kluwer Academic Pub., 1998. – 224 p.
8. Нукулина Н.Н., Березина С.В. *Страхование. Практикум: учебное пособие*. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 255 с.
9. Abduraxmonov I.X. Sug'urta sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llash istiqbollari // *Moliya va bank ishi*. – 2022. – № 1. – B. 95–99.
10. Qarshiyev O.A. Sug'urta kompaniyalarida aktivlar tarkibini boshqarish masalalari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar: ilmiy elektron jurnal*. – 2022. – № 1 (57), yanvar-fevral. – 250–260 b.
11. Cummins J.D., Weiss M.A. *Systemic Risk and the U.S. Insurance Sector* // *Journal of Risk and Insurance*. – 2014. – Vol. 81, No. 3. – P. 489–528.
12. Skipper H.D., Kwon W.J. *Risk Management and Insurance: Perspectives in a Global Economy*. 2nd ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2019. – 582 p.
13. Boronina T. *Financial Stability of Insurance Companies and Methods of Its Assessment* // *Studies in Business and Economics*. – 2023. – Vol. 18, No. 1. – P. 25–41.
14. Harrington S.E., Niehaus G. *Risk Management and Insurance*. – New Y.: McG.-H., 2004. – 672 p.
15. *European Insurance and Occupational Pensions Authority (EIOPA). Solvency II: Overview and Framework*. – Frankfurt: EIOPA, 2020. – URL: <https://www.eiopa.europa.eu>
16. *International Monetary Fund. Financial Soundness Indicators Compilation Guide (2019 FSI Guide)*. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2019. – 354 p. – URL: <https://www.imf.org/en/Data/Statistics/FSI-guide>
17. *European Insurance and Occupational Pensions Authority (EIOPA). Insurance Risk Dashboard*, April 2026. – Frankfurt: EIOPA, 2026. – URL: https://www.eiopa.europa.eu/tools-and-data/insurance-risk-dashboard_en